

MUTALLIBJONOV BOBURMIRZO
UNIVERSITY OF BUSINESS
AND SCIENCE 1 kurs talabasi.
bmutallibjonov@gmail.com
+998770027027

UDC:94

IZBOSKAN TUMANI TARIXI HAQIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati Izboskan tumanining kelib chiqich, aholisi, rahbari, shugʻullanadigan xoʻjaliklari boʻyicha qimmatli tarixiy manbalar berilgan. Shuningdek, Izboskan tumanda hozirgi faoliyat boʻyicha rivojlantiruvchi sohalarga doir maʼlumotlar taqdim qilingan.

Tayach soʻz va tushunchalar: Izboskan, Poytugʻ, tuman, qishloq, strategiya, hamkorlik, ijtimoiy himoya, hududiy boʻlim, yodgorlik, islohat.

Аннотация: В данной статье приведены ценные исторические источники о происхождении, населении, главах и хозяйствах Иzbосканского района Андижанской области. Также была представлена информация о развивающихся направлениях текущей деятельности в Иzbосканском районе.

Ключний слова: Иzbоскан, столица, район, село, стратегия, сотрудничество, социальная защита, райотдел, памятник, реформа.

Abstract In this article, valuable historical sources are given on the origin, population, head, and farms of Izboskan district of Andijan region. Also, information on the developing areas of current activity in Izboskan district was presented.

Keywords Izboskan, capital, district, village, strategy, cooperation, social protection, regional department, monument, reform.

Andijon viloyati shimolida joylashgan . 1926 yil 29 sentabrda tashkil etilgan . Andijon viloyatining Paxtaobod , Andijon , Balikchi , Oltinkul tumanlari bilan Namangan viloyati va Kirgiziston bilan chegaradosh. Maydoni 0.28 ming km² . Axolisi 186.2 ming kishi . Izboskan tumanida 1 shaxar (Poytug) va 9 ta fukorolar yigini mavjud Izboskan , Namuna , Shermatobod , Erkin , Yakkatut , Yangi zamon , Yangikishlok , Urtoklar , Kizil yulduz . Markazi Poytug shaxri.

IZBOSKAN – Andijon viloyatidagi tuman nomi. Toponimning kelib chiqishi toʻgʻrisida bir necha taxminlar bor:

1. Oldinlari xalq vakillari tomonidan yaxshi tozalanmagan joy maʼnosida baʼzi bir toponimlar Isbosgan deb atalar ekan. Bunday deb tushuntirilishiga sabab, Izbosgan va Isbosgan toponimlaridagi z // s yoki s // z holatlarining talaffuz jarayonida roʻy berishidir. Lekin joyni Isbosgan deyish oʻrinli, chunki xalqimiz tozalikka oʻrgangan.

2. Bu hududda mard, lafzi halol kishilar yashashgan ekan. Ayni haqiqat rostan ham mart jasur ota bobolarimiz haqida kop eshitkanmiz. Ularning avlodlari ham shunday kishilar boʻlishgani uchun avlod-ajdodlar qadriyatlarini ulugʻlovchilar, bobolar anʼanalariga amal qiladiganlar,

avlodlari izidan yurganlar ma'nosida Izbosgan toponimi qo'llangan. Menimcha ikkinchi taxminiy fikr asosliroq. Chunki bu toponim to'rtta ma'noli qismdan iborat: iz, -ni (belgisiz ishlatilgan), bos, -kan (gan). Toponimda "bos" so'zining o'n oltita ma'nosidan birinchi ma'nosi "iz" so'zining to'rtta ma'nosidan birinchi ma'nosi bilan birikib kelgan va ularning birikishi natijasida tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qolgan va g undoshi k undoshiga o'tgan: g > k. Joy nomi quyidagi taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan: iz+ni+bos+-gan > izni boskan > iz boskan >¹ Izboskan. Bu toponim avlodlar an'alarini davom ettirish ma'nosida bobolar izini bosganlikni anglatadi. Uning etimoni izni boskan shaklidagi obyektli birikma sanaladi.

Izboskan² so'zining asl manosi nima. Tumanimiz nomi sobik Madaniyat davlat xojaligi (hozirgi Izboskan shaharchasi) o'rnida mavjud bulgan "Isvaskon" qishlogi nomidan olingan. Rivoyat qilishlaricha, bu qishloqqa Dovud paygambarga o'xshash bir nazirli (avliyo) inson ortidan, uning izini bosib kelgan muridlar jamoasi asos solgan ekanlar. Bu qishlok hududini doimo Maylisoy daryosi yuvib turgan. Daryo izini bosib o'zlashtirilgan erlarda dexkonlar ekin ekib, hast kelib o'rnashib kolganlar va shu tarika toponim nomi vujudga kelgan. Bu nomning morfologiyasi talkini shundaiki, kan" daryo, soy, "bos" ya'ni kuyi manosida ifodalaydi. "Izboskan" degan tarixiy nomning asl ma'nosi "daryo yoki soy etagidagi izlar (soilar)" degan ma'noni beradi.

Demak, "Izboskan" nomi asli "Izpastkan" bo'lib "Maylisoy etagidagi sernam soy" yoki "dare etagidagi soy" ma'nosini bildiradi.

TABIATi Izboskan tumani asosan pasttekistlik bulib janubiy garbga tomon pasayib boradi shimoliy kismi maylisoy adirlaridan iborat va iqlimi mutadil shuningdek iyulning urtacha xarorati 27 daraja yanvarniki minus 3 daraja vegetatsiya davri 240 255 kun va yiliga urtacha 300 - 500 mm yog'in tushadi va tuman xududidan Katta Fargona kanali , Koradaryo , Maylisoy Tentaksoy okib utadi asosan buz tuprok , tuk va och tusli utlokli botkok o'tlokli tuproklar tarkalgan va yovvoyi o'simliklardan yulg'un kamish yantok shura usadi va aytadigon bo'lsak yovvoyi xayvonlardan chiyaburi tulki bo'ri to'ngiz va yovvoyi echkilar kun kechirmoqda kemiruvchilardan suv kalamushi, qushlardan kabutar, tustovuk, urdak, g'oz, laylak, kaklik, bedana, korabovur, burgut, boyug'li, zogcha, karga, xakka va boshkalar yashaydi³.

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>

² R.Y.Xudoyberganov O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [va boshq.] b 153

³ <https://uz.m.wikipedia.org>



- Danbo'ychek
- Izboskan
- Namuna
- Shermatobod
- Erkin
- Yakkatut
- Yangi-zamon
- Yangiqishloq
- O'rtoqlar
- Qizil Yulduz
- Navro'zobod
- Log'umbek

Izboskan tumanida
1ta shahar (Poytug)⁴

Izboskan tumanida 1ta shahar (Poytug)⁴ 1ta shaharcha (To'rtko'l)⁵ va 12ta qishloq fuqarolari yig'ini bor. Manbalarga qaraganda Amir Temur davrida yani IV asr so'ngi yarmida bu joylar to'qay bo'lganligi bois aksariyat janglar shu joyda bo'lgan va askarlar g'alaba qozonib Tig' ko'tarib yurishgan va qadam bosgan joylarida iz qolgan, keyinchalik Iz bosgan Izboskan terminiga aylanib mahalliylashgan.

Andijon viloyati Paxtaobod, Andijon, Baliqchi, Oltinko'1 tumanlari, Namangan viloyati, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,28 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Tuman aholisi -258,2 ming kishi. Aholining aksar qismi - o'zbeklar (99,7%). 1 kilometr kvadratga o'rtacha 670 kishi to'g'ri keladi, 50 ga yaqin umumiy ta'lim maktabida qariyb 40 ming o'quvchi, kasb-hunar va biznes maktabida 670 o'quvchi, 2 ta litsey-internatda 236 o'quvchi, tasviriy san'at litsey-internatida 312 o'quvchi, 1 gimnaziyada 300 dan ziyod o'quvchi ta'lim olmoqda. Tumanda bank bo'limi, markaziy kutubxonasi, 35 dona jamoat kutubxonasi, musiqa maktabi, markaziy madaniyat uyi, 2 dona avtoklub, «Oltin soz» xalq ansambli, o'lkashunoslik muzeyi ishlab turibdi, 4 ta 620 o'rinli shifoxona 20 o'rinli xususiy shifoxona, 8 ta qishloq vrachlik shoxobchasi, 8 ta vrachlik ambulatoriyasi, 38 ta feldsher-akusherlik shoxobchasi va b. faoliyat ko'rsatmoqda. Jami 275 nafar vrach va o'rta ma'lumotli tibbiy xodim ishlaydi⁶.

⁴ Geografiya fanlari doktori, professor H.Hasanov Poytug' toponimining ma'nosini "To'g'onda", "To'g'onning yonida" deb hisoblaydi.

⁵ Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "To'rt burchak" ma'nosida keladi ("To'rti gul", "To'rt kil", ko'l")

⁶ 1929-yildan «Paxtakor» nashr etildi (adadi 2150 dona).

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i - paxtachilik va g'allachilik. Sabzavotchilik, poliz ekinlari yetishtirish, bog'dorchilik ham rivojlangan. Umumiy ekin maydoni 16,3 ming gektar, shundan 8,8 ming gektarga paxta, 5,9 ming gektarga donli ekinlar ekiladi. 585 ga yer bog', 64 ga tokzor. Tumanda 15 shirkat xo'jaligi, aksiyadorlik jamiyati, xujaliklararo chorvachilik korxonasi, «Istiqbol» chorvachilik korxonasi, meva-ko'chatchilik tajriba xo'jaligi, urug'chilik tajriba xo'jaligi, o'rmonchilik xo'jaligi (Qoradaryo o'rmon xo'jaligi: 161 gektar; Qorako'l o'rmon xo'jaligi: 22 gektar; Lug'umbek o'rmon xo'jaligi: 87 gektar) mavjud. Tuman shirkat va shaxsiy xo'jaliklarida 32,3 ming qoramol, shundan 14,5 ming sigir, 27,8 ming qo'y va echki, 622 ot boqiladi. Tuman hududidan avtomobil yo'llari, Andijon — Uchqo'rg'on (15 km) temir yo'li o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2019 yil 4 oktyabr "Moddiy madaniy merosning kuchmas mulklari obyektlari milliy ruyxatini tartibga solish tugrisidagi 846-sonli karoriga asosan, Izboskan tumanida 33 ta tarixiy yodgorlik davlat muhofazasiga olingan.

Bular 6 ta diqqatga diqqatga sazovor joylar:

- Poitug aziz mozori ziyoratgohi
- Oh mozor ota ziyoratgohi
- Khuzhakambar ota ziyoratgohi
- Oyjamol ziyoratgohi
- Islamish ota ziyoratgohi
- Yakkatut ota ziyoratgohi

3 ta monumental san'at yodgorliklari:

- Nomalum jangchi yodgorligi, 1968 yil, "Uzunkucha" MFY
- Nomalum jangchi yodgorligi, 1976 yil, To'rtko'l shaharchasi, "G'uzor" MFY
- Allomalar hiyoboni, XX asr, Poytug shaxri

3 yodgorliga arxitekturasi:

- Zhonobod masjidi, 1900 yil
- Turaxon masjidi 1987 yil
- Otalar choikhonasi 1980 yil

21 Yodgorliga arxeologiyasi:

- Eylaton shahristoni, azizim. Av. VI-II asrlar osha
- Mondak tepa, V-VIII asrlar
- Navzhur shaharchasi, V-XII asrlar
- Sumalangan tepaligi (aniklanmagan)

- To'rtko'l tepa, V-VIII asrlar
- Qashqarmozor, III-IV asrlar
- Yangizamon tepa, III-IV asrlar
- Dala tepa III-V asrlar
- Jiydamozor tepa, III-VI asrlar
- Chayon tepa, azizim. Av. I - kuy III asrlar
- Kindik tepa III-V asrlar
- Shayxmozor I-VIII asrlar
- Chettapa V-VIII asrlar
- Sharq yulduzi tepa II-VIII asrlar
- To'rtko'l tepa III-IV asrlar
- Eski mozor tepa V-VIII asrlar
- Botirobod tepa I-V asrlar
- Qayrag'och tepa V-VIII asrlar
- Munki tepa, II-VIII asrlar
- Bog'och tepa V-VIII asrlar
- Logumbek tepa, II-VIII asrlar). Agar bu yodgorliklar sizning yashash manzilingizga yaqin bo'lsa, ularning asrab-avaylashda faol ishtirok eting! Zero bu yodgorliklar tumanimiz tarixining ajralmas qismidir...

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkunki Izboskan tarixi ancha qadim ildizlarga ega. 1944 yillarda aynan Izboskan g'alla yetishtirish yani, chigit ekish jarayonida ilg'or bo'lganligi, paxta terish borasida ham yetakchilikli qo'lga kiritganini manbalarda ko'rishimiz mumkun. Vaqt o'tishi bilan Andijon viloyatida joylashgan Izboskan har sohada ilg'or bo'lib aholi soni bo'yicha ham yetakchilikni qolga kiritib kelmoqda. Hozirgi kunda izboskanga nazar soladigon bolsak tobora kundan kunga aholi yashaah tarzi osonlashib aholiga keng shart sharoitlar yaratib berilmoqda va biz bundan bag'oyat hursandmiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdusalom Soliyev "Izboskan tarixi,, - andijon
2. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn]: lug'at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. <https://andijon.uz>
5. <https://www.figma.com/community/file>